

## O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA HISOBGA OLİSH

*To'xtayeva Nozima Narziyevna  
G'ijduvon tumani 5- umymiy  
orta ta'lim maktabi psixologi .*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari va ularni ta'lif jarayonida hisobga olgan holda, zamonaviy kasblarga yo'naltirish metodlari tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash murakkab jarayon bo'lib, u shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlarini va psixologik xususiyatlariga mos kelishi zarur.

### KIRISH

Maqolada o'quvchilarning temperament, iqtidori, qiziqishlari va shaxsiyati asosida kasb tanlashga oid psixologik yondashuvlar, metodlar va amaliy tavsiyalar keltiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning individual farqlari hisobga olinib, ularni kasb tanlashda samarali yo'naltirishda matab psixologining o'rni ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lif muassasalarida shaxsga mos kasb yo'naltirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kalit so'zlar: O'quvchilar, individual xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, kasblarga yo'naltirish, zamonaviy kasblar, temperament, qobiliyatlar, psixologik metodlar, kasb tanlash, matab psixologi. Kirish Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga zamonaviy kasblar tizimi ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Shunday vaziyatda o'quvchilarni individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularni zamonaviy kasblarga to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining temperament, qobiliyat, qiziqish va psixologik holati kasb tanlash jarayonida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish metodlari o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini chuqur o'rghanish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, zamonaviy kasblarning talablariga moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga, ta'lif muassasalari, xususan matab psixologlari o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va ularni kasb tanlashga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini aniqlash metodlari, zamonaviy kasblarga yo'naltirishning samarali usullari hamda matab psixologining bu jarayondagi o'rni haqida so'z boradi. O'quvchilarning kasb tanlash jarayonida ularning yoshga oid psixologik xususiyatlari, shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va ijtimoiy muhit omillari muhim rol o'ynaydi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yo'naltirish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy kasblarning

ko‘payishi va ularning turli sohalarda tez sur’atlarda rivojlanayotgani o‘quvchilar orasida kasbiy orientatsiyani aniq belgilashni yanada murakkablashtirmoqda. Ota-onalar, ustozlar va psixologlar ushbu jarayonda muhim vositachilar bo‘lib, ular o‘quvchining ichki dunyosini anglash, qobiliyatlarini aniqlash va uni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirishda asosiy rol o‘ynaydi. Asosiy qism Individual psixologik xususiyatlar — bu har bir insonning o‘ziga xos ruhiy, hissiy va xulq-atvor belgilaridan iborat bo‘lib, uning shaxsiyligini tashkil etadi. Ushbu xususiyatlar insonning o‘zini idrok etishi, atrofdagi olamga munosabati, boshqalar bilan munosabatlari va turli vaziyatlarda o‘zini tutishida aks etadi. Individual psixologik xususiyatlarni aniqlash va hisobga olish zamonaviy kasblarga yo‘naltirish jarayonini samarali qilishga yordam beradi. Shu bois maktab psixologlari va ta‘lim muassasalari ushbu xususiyatlarni baholash uchun maxsus metod va uslublardan foydalanadilar. O‘quvchilarning individual xususiyatlari ularning xarakteri, qobiliyatları, qiziqishlari, temperament va iqtidori kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar har bir shaxsning noyobligini belgilaydi va kasb tanlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Psixologik xususiyatlar esa o‘quvchining hissiy holati, motivatsiyasi, qaror qabul qilish qobiliyati va stressga chidamliligi kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillarni aniqlash uchun turli psixodiagnostik metodlardan foydalilanildi. Zamonaviy kasblar doimiy ravishda yangilanib borayotgan texnologiyalar va iqtisodiy sharoitlarga moslashishi talab etiladi. Shu bois, o‘quvchilarni kasblarga yo‘naltirish jarayonida ularning individual psixologik xususiyatlari hisobga olinmasligi, kelajakda mutaxassis sifatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini pasaytiradi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan o‘quvchi o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasbni tanlab, o‘zini ro‘yobga chiqarishi mumkin. Maktab psixologi o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini aniqlashda, ularga kasb tanlashda yordam berishda muhim vazifalarni bajaradi. U o‘quvchilar bilan individual va guruh suhabatlarini olib boradi, psixodiagnostik taddiqotlar o‘tkazadi, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlaydi. Psixolog tomonidan berilgan tavsiyalar o‘quvchining o‘z qobiliyatlariga mos kasb yo‘nalishini tanlashiga yordam beradi va kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniyatlarini oshiradi. O‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni ularning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Kasbga yo‘naltirishda birinchi navbatda o‘quvchining individual xususiyatlari, ya’ni temperament tipi, intilish darjasи, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, qiziqish doirasi va shaxsiy qadriyatlari inobatga olinishi lozim. Maktab psixologi o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish jarayonida turli psixologik metod va uslublardan keng foydalanadi. Bu metodlar o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni kasb tanlashda to‘g‘ri yo‘naltirish uchun zarurdir. Quyida psixolog faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy metodlar ko‘rsatib o‘tilgan:

1. Psixodiagnostik testlar Psixolog o‘quvchilarning temperamentini, qobiliyatlarini, qiziqishlari va motivatsiyasini aniqlash uchun maxsus testlar, masalan, Holland modeli asosidagi qiziqish testlari, IQ testlari, temperament va xarakter testlarini qo‘llaydi. Bu testlar o‘quvchilarning qaysi kasblarga qiziqishi va ularning qaysi sohalarda iqtidorli ekanligini aniqlashda yordam beradi.

2. Individual va guruh suhbatlari Psixolog o‘quvchilar bilan shaxsiy suhbatlar o‘tkazib, ularning istaklari, orzulari va qiyinchiliklari haqida ma’lumot oladi. Shuningdek, guruh suhbatlari orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi va kasb tanlashdagi qiyinchiliklarni muhokama qiladi. Bu suhbatlar o‘quvchining psixologik holatini baholashda ham muhim ahamiyatga ega.

3. Amaliy mashg‘ulotlar va tajriba Psixolog o‘quvchilarni turli kasb sohalari bo‘yicha tanishtirish uchun amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar va loyihibar tashkil qiladi. Bu tadbirlar o‘quvchilarga o‘z qiziqishlarini sinash va aniqlash imkonini beradi.

4. Ota-onalar bilan ishslash: psixolog o‘quvchining kasb tanlashida ota-onaning bosimi yoki noto‘g‘ri yo‘naltirish xavfini kamaytirish uchun ular bilan hamkorlik qiladi. Bu orqali farzandga individual yondashuvni shakllantirish, ota-onani farzandining real qobiliyatlarini tushunishga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar muktab psixologining zamonaviy kasblarga yo‘naltirishdagi samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari mos kasbni tanlashiga ko‘maklashadi.

## **XULOSA**

Zamonaviy kasblarga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Har bir o‘quvchining temperament, qobiliyat, qiziqish va motivatsiyasi kasb tanlashda asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik metodlar va testlar orqali o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun poydevor yaratadi.

Muktab psixologining faoliyati esa o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini anglab, zamonaviy kasblarga to‘g‘ri yo‘naltirilishida muhim rol o‘ynaydi. Psixolog tomonidan qo‘llaniladigan diagnostika, suhbatlar, konsultatsiyalar va monitoring metodlari o‘quvchilarning kelajakdagi kasb tanlovini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga ko‘maklashadi. Shunday qilib, o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy kasblarga yo‘naltirish nafaqat ularning professional muvaffaqiyatini ta’minlaydi, balki jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muktab psixologlari va pedagoglar kasbga yo‘naltirishda o‘quvchining ichki holatini, motivatsiyasini va qobiliyatlarini chuqur o‘rganib, unga to‘g‘ri yo‘nalish berishlari lozim. Ayniqsa, psixologik maslahatlar, testlar, suhbatlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchining o‘ziga xos imkoniyatlari aniqlanadi va u kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlanadi. O‘quvchilarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda ularning psixologik xususiyatlarini

chuqur tahlil qilish, ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish va kasb tanlashda ongli yondashuvni shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yo'ldoshev, A. (2021). Yoshlarning kasb tanlash motivatsiyasi va psixologik xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti..
2. Tursunova, M. (2020). O'quvchilarda kasbiy yo'nalish va psixologik moslik. Psixologiya va ta'lif, 4(10), 36–42..
3. Xolmatova, Z. (2019). Kasb tanlashda individual yondashuvning ahamiyati. Yosh psixolog olimlar jurnali, 2(6), 18–25.
4. Raxmatullaeva, N. (2018). O'quvchilarning zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishlari va ularni rivojlantirish usullari. Kasb-hunar ta'lifi psixologiyasi, 3(2), 50–57.
5. Salimova, N. (2020). O'smirlarning kasbga bo'lgan munosabati va uni shakllantirish omillari. Ta'lif va rivojlanish psixologiyasi, 5(7), 93–101 72-son 3 –to'plam 2025 y.